

FUQAROLIK SUDLARIDA YUQORI INSTANSIYA ISHLARIDA ADVOKAT ISHTIROKINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Toshpulatov Abdumumin Komil O'g'li

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
advokatlik faoliyati magistratura talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada fuqarolik sudlarida yuqori instansiya ishlarida advokat ishtirokining o'ziga xos xususiyatlari, uning vazifalari, sud ishtirokchilarining yuridik yordam olish huquqining qonun normalarida o'z aksini topganligi, advokatning huquq va majburiyatlari va boshqalar o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: advokat, advokatlik faoliyati, vakil, apellatsiya, kassatsiya, qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlarini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish, advokatning majburiy ishtiroki, konstitutsiyaviy norma, advokat gonorari.

Bugungi kunga kelib advokatura instituti o'zining yangi bosqichiga chiqmoqda ya'ni doimiy rivojlanishdadir. Hozirgi vaqtga kelib jamiyatda fuqarolarning huquqiy ong va huquqiy madaniyatda bir pog'ona ildamlagini ko'rishimiz mumkin. Buni aksi sifatida o'zining huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari buzulgan shaxslarning buzulgan va nizolashilayotgan huquqlarini tiklash uchun davlat organlari, tashkilotlari va mansabdor shaxslariga bevosita yoki bilvosita murojaat qilishlarida ko'rishimiz mumkin. Bilvosita ishtirok etishda fuqarolar o'zlarining qonuniy va ixtiyoriy vakillari xizmatidan foydalanadilar. Fuqarolarning qonuniy vakillari ularning otanalari, farzandlikka oluvchilar, vasiylik va homiylik organlari bo'lishi mumkin. FPKning 67-moddasida esa shartnoma bo'yicha ixtiyoriy vakillar ko'rsatib o'tilgan. Unga ko'ra-ishonch bildiruvchi o'z huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish bo'yicha sudda ish yuritishni shartnoma bo'yicha (ixtiyoriy) vakillikka binoan vakilga topshiradi.

Quyidagilar shartnoma bo'yicha (ixtiyoriy) vakil bo'lishi mumkin:

- 1) advokatlar;
- 2) nasl-nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri tutashgan yoki yon shajara bo'yicha qarindoshlar, shuningdek er (xotin) yoxud uning qarindoshlari;
- 3) yuridik shaxslarning xodimlari — shu yuridik shaxslarning ishlari bo'yicha;
- 4) notijorat tashkilotlarning vakolatli vakillari — shu tashkilotlar a'zolarining ishlari bo'yicha;
- 5) qonunga binoan boshqa shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish huquqi berilgan notijorat tashkilotlarning vakolatli vakillari;
- 6) birgalikda ishtirok etuvchilardan biri boshqa birgalikdagi ishtirokchilarning topshirig'i bo'yicha;

7) ishni ko‘rib chiqayotgan sud tomonidan ishda jismoniy shaxslarning vakillari sifatida ishtirok etishiga yo‘l qo‘yilgan shaxslar.

Fuqarolarga ixtiyoriy ya‘ni shartnomaviy vakil sifatida professional faoliyat bilan faqatgina advokatlar shug‘ullanadilar. Bunday vaqtda biz istaymizmi yo‘qmi jamiyatda advokatlar va advokatlik faoliyatiga talab va etibor oshadi. Advokatlik faoliyati jamiyatning muhim sohalaridan biri bo‘lganligini isboti sifatida 2023-yil 30-aprelda referendum orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi konstitutsiya advokatlik faoliyati haqida yangi bob va yangi normalarni keltirib o‘tishimiz mumkin. Yangi tahrirdagi konstitutsiyaning 141-moddasida ¹“Jismoniy va yuridik shaxslarga malakali yuridik yordam ko‘rsatish uchun advokatura faoliyat ko‘rsatadi. Advokatura faoliyati qonuniylik, mustaqillik va o‘zini o‘zi boshqarish prinsiplariga asoslanadi. Advokaturani tashkil etish va uning faoliyati tartibi qonun bilan belgilanadi” degan normalar o‘z aksini topgan. Bundan tashqari advokatning faoliyati, sha‘ni va qadr-qimmatini davlat tomonidan himoya qilinishi haqida norma ham kiritildi.

Fuqarolar o‘z ishlarini sudda ²shaxsan yoki o‘z vakillari orqali yuritishi mumkin. Fuqaroning ishda shaxsan ishtirok etishi uni ish bo‘yicha vakilga ega bo‘lish huquqidan mahrum etmaydi. Yuqoridagi norma fuqarolik protsessual kodeksining vakillik deb nomlangan bobining 65-moddasida keltirib o‘tilgan. Yuqorida aytib o‘tganimizdek shartnomaviy vakillik bilan professional faoliyat bilan advokatlar shug‘ullanadi. Sud ishlarida vakil orqali ishtirok etish huquqi ularda protsessning barcha bosqichlarida mavjud hisoblanadi. Agar fuqaro birinchi instansiyada vakil olmagan bo‘lsa ham yuqori instansiyalarda vakil orqali yoki u bilan birga protsessda ishtirok etishi mumkin. Advokatlik faoliyati advokat va ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) o‘rtasida tuziladigan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risidagi bitim (shartnoma) asosida amalga oshiriladi. Yuridik xizmat uchun haq to‘lash advokat bilan ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) o‘rtasida ixtiyoriy ravishda tuziladigan bitim (shartnoma) asosida amalga oshiriladi. Agar fuqarolar va yuridik shaxslar yuqori instansiyada ham advokat xizmatidan foydalanishni xohlasa, u yuqoridagi bitimni yana advokat bilan tuzishi kerak bo‘ladi. Agarda fuqaro birinchi instansiya sudida advokat xizmatidan foydalanmasa ham yuqori instansiya sudlarida advokat xizmatidan foydalanishi va o‘zlari istagan advokat bilan yuridik yordam ko‘rsatish va sudda vakil bo‘lish haqida shartnoma tuzushlari mumkin. Advokat agar birinchi instansiyada o‘zi ishtirok etmagan ish yuzasidan yuqori instansiyada bo‘lsa ham yuqori instansiyada advokatishtirok etsa, ish bilan batafsil tashib chiqishi lozim bo‘ladi. Buning uchun advokat O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 40-moddasida keltirilgan “ish materiallari bilan tanishish” huquqidan foydalanishi mumkin. Chunki advokat vakil sifatida FPKning 39-moddasiga ko‘ra

¹ O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi, <https://lex.uz/docs/-6445145#-6446155>

² O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual kodeksi, <https://lex.uz/docs/-3517337>

ishda ishtirok etuvchi shaxs hisoblanadi. Advokat ishning apellyatsiya ³instansiyasida ko'rilishi uchun tayyorlanayotganda FPKning 396-moddasiga ko'ra ish yuzasidan yangi dalillar yig'ishi va sudga taqdim etishi mumkin, ammo FPKning 416-moddasiga ko'ra kassatsiyada bunday imkoniyatga ega emas.

Yuqori instansiyada ish yuritishda advokat duch keladigan muammolardan biri sudning apellyatsiya shikoyatini harakatsiz qoldirish to'g'risidagi ajrim ustidan shikoyat qilib bo'lmasligidir. FPKning 400-moddasiga ko'ra birinchi instansiya sudning ajrimi ustidan ikki holatda apellyatsiya shikoyati berilishi mumkin:

1. Fuqarolik protsessual kodeksda nazarda tutilgan hollarda;
2. Sudning ajrimi ishning keyingi harakatlanishiga to'sqinlik qiladigan hollarda.

Advokat sudda fuqarolar va yuridik shaxslarni huquqlarini himoya qilish jarayonida vakilning vakolatlaridan foydalanadi. Vakilning vakolatlari o'z mazmuniga ko'ra, umumiy va maxsus vakolatlarga ajratiladi. Umumiy vakolatlar vakolat beruvchining nomidan ishtirok etayotgan va vakolatnomadan nazarda tutilgan-tutilmaganligidan qat'iy nazar, har qanday vakil amalga oshirishi mumkin bo'lgan protsessual harakatlardir. Bunday protsessual harakatlar jumlasiga ish materiallari bilan tanishish, ulardan ko'chirmalar olish, nusxalar ko'chirish, rad etish to'g'risida arz qilish, dalillar taqdim etish, dalillarni tekshirishda ishtirok etish, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga va odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashayotgan shaxslarga savollar berish, arz qilish, iltimosnomalar taqdim etish, sudga og'zaki va yozma tushuntirishlar berish, ishni sudda ko'rish davomida tug'iladigan hamma masalalar bo'yicha o'zlarining vajlarini bayon qilish, boshqa shaxslarning arzlari, iltimosnomalari, vajlariga qarshi e'tirozlar bildirish kabilami kiritish mumkin (FPK 40-modda).⁴

Maxsus vakolatlar FPKning 69-moddasida ko'rsatilgan. Unga ko'ra -shartnoma bo'yicha vakillik qiluvchining arz qilingan talablardan to'liq yoki qisman voz kechish, ularning asosini yoki predmetini o'zgartirish, miqdorini ko'paytirish yoki kamaytirish, da'vogarning talablarini tan olish, kelishuv bitimi, mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish to'g'risidagi kelishuv yoki mediativ kelishuv tuzish, vakolatlarni boshqa shaxsga o'tkazish (boshqa shaxsga ishonib topshirish), sud hujjati ustidan shikoyat qilish, arizalarni imzolash, ijro varaqasini undiruvga taqdim etish, undirilgan mol-mulkni yoki pullarni olish vakolati har bir alohida holda vakolat beruvchi tomonidan berilgan ishonchnomada maxsus ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Agarda advokatga ishonch bildiruvchi shaxs tomonidan sud hujjatlari ustidan shikoyat qilish huquqi berilgan bo'lsa, advokat ishonch bildiruvchi shaxsning manfaatlarini ko'zlab sudning qonuniy kuchga kirmagan hujjatlari ustidan bir oy muddat ichida appellatsiya shikoyati berishi mumkin. Bu muddat bir nechta holatlarda istisno tariqasida o'n kun

³https://www.researchgate.net/publication/368276351_Fuqarolik_ishlari_boyicha_sudlarda_yuqori_instansiyada_ish_yuritishda_advokat_ishtirokining_ahamiyati

⁴ O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual kodeksi, <https://lex.uz/docs/-3517337>

hisoblanadi. Bu haqda FPKning 385-1- moddasida sudning soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko‘rib chiqilgan, shuningdek o‘zboshimchalik bilan egallab olingan, davlat mulkida bo‘lgan yer uchastkasini qaytarish, o‘zboshimchalik bilan qurilgan imoratni buzib tashlash to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha hal qiluv qarori ustidan apellyatsiya shikoyati (protesti) hal qiluv qarori qabul qilinganidan keyin o‘n kun ichida berilishi mumkinligi keltirib o‘tilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, advokatning fuqarolik ishlarining har bir bosqichida ya‘ni birinchi va yuqori instansiya bosqichlarida ishtirok etishi juda muhim hisoblanadi. Chunki jamiyatda hammada ham yetarlicha huquqiy ong va huquqiy madaniyat shakllanmagan. Ya‘ni ular o‘zlarida mavjud huquqiy bilimlari bilan sudda o‘z haq-huquqlarini himoya qilolmasliklari mumkin. Bunday vaziyatda advokatning yuridik bilim, malaka va ko‘nikmalaridan foydalanish ya‘ni uning yuridik yordamidan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi
2. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual Kodeksi. www.lex.uz
3. O‘zbekiston Respublikasining “Advokatlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. www.lex.uz
4. Advokatura. Darslik. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: TDYU, 2019
5. Fuqarolik protsessual huquq o‘quv qo‘llanma, M.M. Mamasiddiqov, Z.N. Esanova, D.Y. Habibullayev Toshkent «ILM ZIYO» 2012
6. Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarda yuqori instansiyada ish yuritishda advokat ishtirokining ahamiyati, Maqola Zarnigor Bebutova
7. Matkarimov Q.Q O‘zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyati, o‘quv qo‘llanma. Toshkent TDYU nashriyoti-2023.
8. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat boji to‘g‘risida”gi Qonuni. www.lex.uz
9. Doniyorbek, Davronov. "The Procedure and Grounds for Applying the Measure of Compulsory Attendance." *American Journal of Social and Humanitarian Research* 3.7 (2022): 59–66.
10. Esenbekova P., F. Ibratova, and D. Davronov. “Legal issues of electronic evidence in the economic process”. *Norwegian Journal of Development of the International Science* 76-2 (2021): 20–24.
11. Faxriddinova, Bebutova Zarnigor. “There are cases where a lawyer should be involved in civil proceedings: Legal analysis of foreign experience”. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal* 3.8 (2022): 555–558.

12. Fakhriddinovna B.Z. The impact of family decisions on child psychology: legal and artistic interpretation // Interdiscipline innovation and scientific research conference. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 15–18.
13. Бебутова З. Advokatning fuqarolik va iqtisodiy protsessdagi maqomi: huquqlar va majburiyatlar // Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 6/S. – С. 163–166.
14. Сулаймонова Н. Меҳнатга оид низоли ишларни судда кўришнинг процессуал хусусиятлари // Международная конференция академических наук. – 2022. – Т. 1. – №. 30. – С. 17–20.
15. Advokatura institutining tashkiliy-huquqiy asoslari, o'quv qo'llanma Qodiraliyev Saddam Bahtiyorjon o'g'li, T.: TDYU nashriyoti 2023.
16. Advokatura. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. Egamberdiev A.U., Ahmedov R.T., Mirzaev Sh.M., Fazilov F., Nikonov I., Sayfieva G. T.: TDYuU nashriyoti, 2016. - 250 bet.
17. Advokatura. Darslik. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: TDYU, 2019. – 195 bet
18. Advokatura darslik // Mas'ul muharrir y.f.n., prof. D. Habibullayev - T.: TDYU, 2021. - 108 bet.